

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni 9

A.Y.Toyirov

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni 16

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

S.S.Evato

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

I.A.Asatulloev

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

L.K.Axatov

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K: 78.01:130.2

XALQ MUSIQA IJODIGA DOIR FALSAFIY-MADANIY YONDASHUVLAR**ФИЛОСОФСКО-КУЛЬТУРНЫЕ ПОДХОДЫ К ТВОРЧЕСТВУ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ****PHILOSOPHICAL-CULTURAL APPROACHES TO FOLK MUSIC CREATION****Umrzakov Islom Ilhom o'g'li**

Mirzo Ulug'bek tumani Yoshlar ishlari bo'lim boshlig'i

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari falsafiy jihatdan keltirib o'tilgan. Xususan, musiqa san'atining an'anaviy turi ommaviy badiiy ongning xususiyatlari sifatida ochib berilgan. Qolaversa, o'zbek xalq musiqa ijodini o'rganishda mamlakatimizda qator ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shuningdek, an'anaviy musiqa san'atining tendensiylari asoslab berilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются специфические особенности музыкального искусства с философской точки зрения. В частности, традиционная форма музыкального искусства раскрывается как черта массового художественного сознания. Кроме того, в нашей стране проанализирован ряд научной литературы по изучению узбекской народной музыки. Обосновываются также тенденции традиционного музыкального искусства.

Abstract

This article presents the specific features of musical art from a philosophical perspective. In particular, the traditional type of musical art is revealed as a feature of the mass artistic consciousness. In addition, a number of scientific literature in our country has been analyzed in the study of Uzbek folk music. Also, the trends of traditional musical art have been substantiated.

Kalit so'zlar: Og'zaki an'anadagi musiqa, folklor qo'shiqlari, milliy kuy-qo'shiqlar, aytimlar, lapar, mehnat qo'shiqlari, chovchilik qo'shiqlari, «Ko'sh haydash», «Shoxmoyilar», «Mayda», «Oblo baraka».

Ключевые слова: Устная музыка, фольклорные песни, народные мелодии, айтими, лапар, трудовые песни, скотоводческие песни, «Кош уздхин», «Шохмойлар», «Майда», «Обло барака».

Key words: Music in the oral tradition, folklore songs, national melodies, aytimlar, lapar, labor songs, livestock songs, "Ko'sh udyan", "Shokhmojilar", "Mayda", "Oblo baraka".

KIRISH

Musiqaning eng muhim turlari qatoriga an'anaviy musiqa san'atini alohida e'tirof etish mumkin. Butun insoniyatning eng dastlabki davrlarida ularning ehtiyojlarini ta'minlashda paydo bo'lganligini ta'kidlash zarur. Xususan, an'anaviy musiqa san'ati ikki tendensiyada birinchisi xalq musiqa ijodi (musiqiy folklor) va ikkinchisi og'zaki an'anadagi professional musiqa (mumtoz musiqa, bastakorlik) kabi janrlarga bo'lib o'rganib kelingan. "Og'zaki an'anadagi musiqa ijodkorlari ommaviy badiiy ongning xususiyatlariiga izchil tayanib, muayyan davr, uslub va boshqalarning estetik qonunlari, ijodiy qoidalariga qat'ian bo'ysunadi" (Xo'jayeva M. 2008. – B. 19).

O'zbek xalq musiqa ijodining vujudga kelishi, ko'p yillik tarixga borib taqaladi bundan, ko'rinish turibdiki, sozanda va xonandalar ajdodining faoliyatida qaror topgan bo'lib, xalq hamda og'zaki an'anadagi ustozoda musiqa san'ati bu haqida guvohlik beradi. Ma'lumki, o'zbek xalq musiqa ijodi o'z ichiga: "Folklor qo'shiqlari, milliy kuy-qo'shiqlar, aytimlarni qamrab oladi. Bundan ko'rinaldiki, musiqa ijodining serqatlamligidan dalolat beradi. O'zbek xalq ajdodlarining musiqa sarchashmalari Markazi Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlari X – XI – asrgacha (ya'ni, xalqlar faol chegaralanganlaricha) o'zida bir butunlikni ifoda etadi, keyinchalik, u o'zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiylasos bo'lib xizmat qiladi" (Nosirov R.H. 2004. – B. 13). Fikrimizcha, o'zbek va tojik musiqa madaniyati negizida keyinchalik milliy musiqa san'ati o'ziga xos bir tizim sifatida shakllangan.

FALSAFA

METODLAR

Tahlil qiladigan bo'lsak, vaqt o'tishi bilan musiqiy qarashlar, ularni tadqiq etish, yo'nalishlarni belgilash, mentalitetdan kelib chiqib asarlarni ijro etish va his qilish o'zgarib boradi. Bu sivilizatsiyaga ham bog'liq bo'lgan jarayondir. Bugungi kunda musiqa ijodiyotiga XX asr kompozitorlarining ilmiy yondashuvini yanada izchil tadqiq etish lozimligi ayon bo'ldi. Shu bois, O'zbekiston kompozitorlaridan V.Uspenskiy va A.Kozlovskiyarning maqolalari, "M.Burhonov, M.Ashrafiy, T.Qurbanov va R.Abdullayevning kitob darsliklari, I.Akbarov, M.Tojiyev, F.Yanov-Yanovskiy, M.Bafoyev, X.Rahimov, F.Alimov, D.Amanullayeva, O.Abdullayeva kabi ijodkorlarning o'quv-qo'llanmalari, ommaviy axborot vositalarida, xususan, gazeta va jurnallardagi «chiqishlari» dissertatsiyaning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi" (Abrorova M.F. 2018. – B. 9-10).

O'zbek xalq musiqa ijodini o'rganishda mamlakatimizda qator ilmiy adabiyotlar ham nashr etildi. Jumladan, S.Tursunov (Tursunov S. 2006. – 242 b.), O.Bo'riyev (Bo'riyev O. 2014. – 256 b.), A.Qurbanov (Qurbanov A. 2010. – 322 b.), N.Tursunov (Tursunov N. 2007. – 290 c.)ning tadqiqotlarida ham baxshichilik san'ati bilan bog'liq ayrim jihatlar o'rganilgan bo'lsada, baxshichilik san'atining etnomadaniy jarayonlarga ta'siri alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Ammo O'zbekistonning janubiy hududlarida yuz bergan etnomadaniy jarayonlarga baxshichilik san'atining ta'siri bilan bog'liq jihatlar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu boisdan ham mazkur ilmiy adabiyotlardan tadqiqotning ayrim jihatlarini yoritishda foydalanildi.

TAXLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlillariga ko'ra, tarixiy jihatdan olib qaraganda o'zbek xalq ijodiyoti quyidagicha guruhlarga bo'lingan holda shakllanib kelgan, ya'ni:

1. Og'izdan-og'izga o'tib kelgan ijodiy jarayon;
2. Ustoz-shogird an'analari orqali etib kelgan jarayon;
3. Kasbiy ijodiy faoliyatgacha bo'lgan jarayon;

Ushbu ijodiy faoliyatlarni biz vazifalariga ko'ra, X – XI dan keyingi davrlarni qismlarga bo'lib, o'rganamiz.

1. Og'zaki – xalq og'zaki ijodiga – folklor, asarlarini hamda aytimlar, lapar, mehnat qo'shiqlari, chorvachilik qo'shiqlari, yallalarni o'z ichiga oladi.
2. Ustoz-shogird an'analari orqali kuy qo'shiqlarni bizgacha bo'lgan davr oralig'ida bu an'ana saqlanib qolishigacha bo'lgan jarayondir.
3. Og'zaki ijodidan, ustoz orqali shogirdlarga berilgan musiqiy bilimning kasb orqali yuzaga kelgan" (Nosirov R. 2004. – B. 27.).

Darhaqiqat, o'sib-kelayotgan yosh avlodga xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa hamda xalq bastakorlik yo'llari kiradi. Shuningdek, folklorlik havaskorlik kabi janrlarni bir-biri bilan uyg'un holda yetkazib bera olish albatta, maqsadga muvofiqdir. Milliy qadryatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Bizning vazifamiz shundan iboratki, zamon bilan uyg'unlashgan holda qadam tashlash, yoshlarga to'g'ri va kerakli hamda ma'rifiy, ma'naviy boyliklarimizni, musiqiy madaniyatimizni avaylab to'la-to'kis holda yetkazib berish eng asosiy vazifamizdir.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Xususan, an'anaviy o'zbek musiqasi azaldan ikki ulkan yo'nalishda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan.

1. Folklor musiqasi
2. Mumtoz musiqa" (Xo'jayeva M. 2008. – B. 19.).

«Folklor» - atamasi ingliz tili leksikasiga mansub bo'lib, u ikki so'z, ya'ni folk (folk) - xalq va lore (lore) - donolik so'zlarining birikmasidan tashkil topgan va u «xalq donishmandligi» degan ma'noni bildiradi. "Xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyati shundaki, u ko'pchilik tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari katta ta'limg-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, musiqa rivojlanishining bitmas-tuganmas manbai hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodiyoti - xususan folklor qo'shiqlarining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri ilg'or falsafiy g'oyaviylidir" (Yunusov O. 2021: 5.723).

Milliy musiqa san'atining bir turi sifatida folklor ansambllarini tuzish borasida mamlakatimizda bir qator harakatlar qilingan. Xususan, "ularni asrash va kelajak avlodga to'laqonli yetkazish maqsadida maxsus folklor ansamblli tashkil etish joriy etildi (1978-yilda ilk bor Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida «Gulyor» folklor ansamblı tashkil etilgan. Ayni paytda esa, barcha viloyatlarda bunday ansambllar tashkil etilib, faoliyat ko'rsatib kelmoqda)" (Yunusov O. 2021: 5.723).

Folklor musiqasining asosiy mezonlari marosimlar va voqeliklar bilan bog'liq bo'lib, to'rtta yo'nalishdan iboratdir. Bular:

- «1. Bolalar musiqasi
- 2. Mehnat qo'shiqlari
- 3. Marosim qo'shiqlari
- 4. Diniy, afsuniy qo'shiqlar” (Xo'jayeva M. 2008. – B. 27.).

Folklor musiqasi o'zining xalqchilligi, g'oyaviyligi va qiziqarli ekanligi bilan bir qatorda xalqning matonati, yengilmas irodasi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, shodiyona, adolat, tinchlik haqidagi tasavvurlarni yorqin namoyon eta oladi.

Binobarin, marosim qo'shiqlari musiqa folklorining murakkab va muhim masalalaridandir. San'atning ba'zi bir tomonlari, xalq ma'naviy madaniyati, she'riyati, maishati marosim qo'shiqlarida o'ziga xos ravishda namoyon bo'lgan va u bilan birlashib ketgan. Marosim qo'shiqlari o'zbek xalqi hayotini, tarixi, etnografiyasi, diniy e'tiqodi bilan bog'liqligi, ularda so'z va kuy mutanosibligi muhim rol o'ynaydi va ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi juda boy, xilma-xil an'analarga ega. Bularni ijtimoiy munosabatlar turlariga qarab shartli ravishda tabiat, geografik muhit, mehnat turlari, milliy turmush va madaniyatga doir an'analarga bo'lismumkin. O'zbek xalqining o'ziga xos iqlimi, aholining mashg'uloti, xo'jalik faoliyatidagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelgan. Maishiy turmushda musiqa va she'riyatning or'ni, so'z, raqs va tomosha san'atlarining sehrli kuchidan foydalanishda o'ziga xos an'analar yuzaga kelgan. Marosimda urf-odatlар qo'shiqlar bilan bir butunlikda olinadi. Zero, marosimning tarixiy taqomilini ko'rish uchun qo'shiqlarning badiiy obrazi muhim o'rinn tutadi. "Qo'shiqlar mehnatkash xalqni moddiy va ma'naviy hayotining hamma tomonlari bilan mahkam bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyotda insoniyat falsafiy tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga xos obrazlarida badiiy aks ettiradi" (Alimjanova N. 2020. – B. 49.). Marosimlarda xatti-harakat va so'z vositalari qatorida musiqa muhim o'rinn tutadi. Biz birorta marosimni qo'shiq yoki aytim-yo'qlovlar tasavvur eta olmaymiz. Marosimlarga ko'ra qo'shiqlar ham mavsumiy, oilaviy-maishiy va diniy-ibodat turlariga bo'linadi. O'zbek xalqi boy tasviriy vositalarda ifodalangan, serqirra mavzusi hamda janrlarning turli-tumanligi bilan xarakterlanuvchi qadimiy marosim qo'shiqlari va ularning ijrochilik usullariga ega. Turli marosimlarda ko'pchilik guruhi yoki yakka ijo xoli (ma'lum cholg'u jo'rлиgi yoki jo'rsiz)da turli kuy-ohanglarda ushbu qo'shiqlar talqin (kattalar yoki bolalar tomonidan) qilinmoqda. O'zbekistonning hamma mintaqasi va hududlarida marosim qo'shiqlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos musiqiy tili va shevasi, shakl va mahalliy ijo uslublari bilan ajralib turadi.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari orasida Navro'z bilan bog'liq «Muborakbod», «Yil boshi», «Boychechak», «Salom, Navro'z», «Bahor keldi», «Sumalak»; fasllar bilan bog'liq chaqiriqlar «Sust xotin», «Choy momo», «Qor keldi»; sharq taqvimi bilan «Ramazon yoki Yo rabbim» kabi aytim-terma va qo'shiqlar keng tarqalgan. "Mavsumiy-mehnat marosimlarida «Ko'sh haydash», «Shoxmoyilar», «Mayda», «Oblo baraka» (erkaklar tomonidan erkin uslubda, baland va ochiq ovozdagi aytigelgan) qo'shiqlar mavjud. Oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari to'y, aza-motam va davolash marosim va urf-odatlari bilan bog'liq. Bular «Ona allasi»; to'y marosim qo'shiqlari janrlari «muborak» (To'y muborak, Al muborak, To'y boshlovi), «qutlov» (Xush keldingiz, Kelin va quyov qutlovi), «yor-yor» (Yor-yor yoki O'lan), «kelin salom» (Kelin salom, Chor salom, Xazor ali), aytishuvlar (Muborak, Baytxonlik, Lapar), «hayrashuv» (To'y javobi, Xoram vohasida tarqalgan) kabi qo'shiq janrlari mavjud" (Alimjanova N. 2020. – B. 67.). Aza-motam marosimlarining asosiy aytim shakli «yig'i» va «yo'qlov»dir; «marsiya» qo'shig'i dafn marosimda cholg'u jo'rligisiz erkaklar tomonidan kuylangan. Davolash marosimda ayollar tomonidan yakka va jo'rsiz «badiq» aytimi o'tmishda keng o'rinn olgan.

Ma'lumki, o'zbeklarning axloqi, odati islam dini qoidalari bilan bog'lanib ketgan. Islam dinining qadriyatları qanchali kuchli bo'lmasisin, xalqdagi juda qadimiy ishonch-e'tiqod, urf-odatlari marosim aytim-qo'shiqlar va ashulalar bilan bog'liq bo'lgan va ular etuk hofiz-xonandalar tomonidan ijro etilgan. Ular bevosita mumtoz musiqasi namunalari bo'lib, professionallik darajasi bilan belgalanadi. Bular o'zgacha diniy-ibodat marosim aytim-ashulalarni tashkil etadi, jumladan, «azon», «Qur'on aytimi», «mavlud», «zikr aytimlari», shomonlik «ko'ch aytimlari», diniy mavzudagi ashula yo'llari – «munojot», «na't», «qalandariy va xonaqoqiy» kabi bir qator qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.

Mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlarining turlari ko'p bo'lib, ular (inson umri va uning mehnat faoliyati davomida) uzoq o'tmish davrlarda shakllangan bo'lib, o'zida xalqning mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashi, hayot voqeliklari, orzu-istiklari, ma'naviy, madaniy va moddiy dunyosi

FALSAFA

o'z aksini topgan. Shuni ham aytish kerakki, "ma'lum marosimlar va ularda ijro etiladigan qo'shiqlar (masalan, Sust xotin, Choy momo, Qo'sh haydash, Qor chaqirish) endilikda o'z mavqeini yo'qotgan bo'lsa-da, ammo ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanishi jarayonida ma'lum ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shunday ekan, ushbu marosimlarda qo'llangan musiqiy janrlar haligacha xalqimiz hayotida saqlanib, o'z holida yoki qayta tiklangan, sahnaviy (folklor-etnografik ansamblari) talqinida ijro etilmoqda" (Alimjanova N. 2020. – B. 76.). Ushbu qo'shiqlarga xos bo'lgan ijrochilik uslublari va usullari ham ayrim o'zgarishlarga duch kelmoqda, masalan, yakkaxon aytim yo'li o'rnila aytishuv yoki guruh bo'lib aytish shakllari keng qo'llanilmoqda; jo'rsozliksiz ijro etilgan qo'shiq va aytim yo'llari endilikda doira, dutor, chang-qo'biz yoki an'anaviy cholg'ular ansambl jo'rligida tinglovchilarga taqdim etilmoqda.

XULOSA

Uzoq yillardan beri xalqimizning asrlardan beri avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan asriy an'analari, urfodatlari va qadiryatlar mavjud. Bu milliyigimizni jonli tarzda do'mbira orqali tarannum etuvchi baxshichilik san'atidir. Baxshining do'mbirasidan taralayotgan kuy, uning shirali ovozi kishi qalbini beixtiyor to'lqinlantiradi, jumbushga keltiradi. Negaki, o'zbek xalq dostonlarida xalqimizning falsafiy tafakkurining juda boy va qadimiyligi an'analari mujassam. Zero, dostonchilik san'atining bunday badiiy an'analari xalq baxshilarining takrorlanmas amaliyoti va tinimsiz mehnati bilan bizgacha etib kelgan. Shuningdek, xalq yaratgan kuylarda, qo'shiq va dostonlarda Vatan, Ona yurt timsoli, mardlik, matonat, hamjihatlik va boshqa ko'p axloqiy fazilatlar kuylangan, vafo, mehrli bo'lishga va insonparvarlikka, hamjihatlikka chorlash kabi bir kator falsafiy tushuncha va tamoyillarni inson ongiga singishtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abrarov M.F. XX-XXI asr kompozitorlarining adabiy-tanqidiy ijodiyotida milliy va umuminsoniy tamoyillar: San'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zDK, 2018. – B. 9-10.
2. Nosirov R.H. O'zbek xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi: Fals. fan. bo'y. fals. nom... dis. avtoref. – Toshkent: O'zRFA A.Navoij nomidagi Til va adabiyot instituti, 2004. – B. 13.
3. Tursunov S., Pardayev T., Qurbanov A., Tursunov N. O'zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti., 2006. – 242 b.
4. Bo'riyev O., Ochilov A. Qashqadaryo vohasi ethnomadaniy qadriyatlari. – Toshkent: "Yangi nashr", 2014. . – 256 b..
5. Qurbanov A. Shimoliy Surxon vohasi aholisining etnik va lokal jihatlari. – Toshkent: "Yangi nashr", 2010. – 322 b.
6. Turcsunov H. Этнические особенности насилия Южносурханского оазиса (конец XIX – начало XX вв). Автореф. дисс...канд. истор. наук. – Ташкент, 2007. – 290 с.
7. Nosirov R.H. O'zbek xalq qo'shiqlari kompozisiyasi: Fals. fan. bo'y. fals. nom... dis. avtoref. – Toshkent: O'zRFA A.Navoij nomidagi Til va adabiyot instituti. 2004. – B. 27.
8. Xo'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2008. – B. 19.
9. Alimjanova N. Musiqa adabiyoti. – Toshkent: Navro'z, 2020. – B. 49.
10. Shaxs ma'naviy-ruhiy begonalashuvining shakllari F.A Ibrohimov, IS Fayziyev Scientific progress 1 (5), 591-599
11. Philosophy Education as a Scientific-Pedagogical Problem IFA o'g'li Miasto Przyszlosci Kielce 2024